

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BOYATOV OYBEK MAXMUDJON O‘G‘LI

**MAJZUB NAMANGONIY ADABIY MEROSI MANBALARI, MATN
TARIXI VA BADIYYATI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Boyatov Oybek Maxmudjon o‘g‘li

Majzub Namangoniyy adabiy merosi manbalari, matn tarixi va badiiyati 5

Boyatov Oybek Maxmudjon o‘g‘li

Sources of Majzub Namangani’s Literary Heritage, Textual History, and
Poetics..... 25

Боятов Ойбек Махмуджон угли

Источники литературного наследия Маджзуба Намангани, история текста и
его поэтика 48

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BOYATOV OYBEK MAXMUDJON O‘G‘LI

**MAJZUB NAMANGONIY ADABIY MEROSI MANBALARI, MATN
TARIXI VA BADIYYATI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/ Fil3384 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musurmonov Erkin Robbimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rafiddinov Sayfiddin Sayfullo o‘g‘li
Filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning ___-yil _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz)

Dissertatsiya avtoreferati ___-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh. S. Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, akademik

Q. U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

B. N. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi va matnshunosligida adabiyot tarixiga doir qo‘lyozma manbalar, ularning genealogiyasi, matn tarixi, poetik tafakkur takomilida tutgan o‘rni hamda ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalar asosiy tadqiqot yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Ma‘lum bir shoir yoki adib ijodiy faoliyatining ichki jarayonlarini Sharq mumtoz poetikasi mezonlari asosida o‘rganish ushbu sohaga oid ilmiy izlanishlarning markaziy yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, muayyan hududda adabiy muhit shakllanishiga turtki bergan va shu orqali badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan shoirlarning lirik merosini tahlil qilish, ularning badiiy mahorat sirlarini o‘rganish adabiyotshunoslikka yangi nazariy hamda amaliy yondashuvlarni kiritish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunoslik va matnshunoslik ilmida Sharq mumtoz she‘riyati namoyandalari asarlarining dastxat nusxalari, qo‘lyozma va toshbosma manbalari, ularning adabiy va irfoniy qimmati, badiiyati masalalari muttasil tadqiq etilib kelinmoqda. Xususan, asosan diniy-tasavvufiy yo‘nalishda ijod qilgan shoir-u adiblar biografiyasi, e‘tiqodi va maslagi, adabiy merosining poetik qimmati yuzasidan ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ular asarlarining shaxs axloqiy-ma‘rifiy kamoloti va jamiyat madaniy-ma‘naviy taraqqiyotida tutgan o‘rni to‘g‘risida bir-biridan farqli ilmiy-nazariy xulosalarga kelinmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligi borasidagi tadqiqotlar natijasida adabiy merosi nisbatan kam o‘rganilgan ijodkorlar asarlari qo‘lyozma manbalari ustida izchil tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar natijasi o‘laroq adabiyot tarixi yangi nomlar bilan boyitilib, qo‘lyozma holidagi badiiy asarlar ilmiy izoh va ko‘rsatkichlar bilan nashr etilmoqda. Manbalar chuqur o‘rganilib, ijodkorlar asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilmoqda, faksimile nashrlari amalga oshirilib, matn tarixi o‘rganilmoqda. Biroq tadqiqotchilarini kutayotgan, tahlil etilishi zarur bo‘lgan qo‘lyozma manbalar ham yetarli. Sohibi devon shoir, tasavvuf tariqati murshidi Abdulaziz Majzub Namangoniy adabiy merosi haqida ham ayni shunday fikrlarni aytish mumkin. Ba‘zi asarlarining nashrlari hamda ayrim tahliliy maqolalarni istisno qilganda, shoir devoni va adabiy-ilmiy merosi monografik asosda tadqiq qilinmagani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. “Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega”¹. Shunga ko‘ra, Majzub Namangoniy ijodiy merosini adabiyotshunoslik hamda matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning so‘nggi yutuqlari asosida tadqiq etish, qo‘lyozma manbalari tahlilini amalga oshirish, badiiy mahoratini baholash dolzarb ilmiy muammolardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 33.

to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2021-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi, 2020-yil 3-martdagi 117-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 10-fevraldagi 61-sonli "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek yozuviga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Majzub Namangoniy adabiy merosi haqidagi dastlabki ma'lumotlar Po'latjon Domulla Qayyumiyning "Tazkirayi Qayyumiy"² asarida uchraydi. Ushbu manbada Majzubning tasavvufiy yo'nalishda ijod qilgani, she'riy uslubi va Namangan adabiy muhitidagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Diniy-tasavvufiy yo'nalishda ijod etgani bois shoir ijodi sho'rolar zamonida deyarli o'rganilgan emas. O'tgan asr 80-yillari avvalida va istiqloq yillarida sharqshunos Ismatulla Abdullayevning tanishtiruv mazmunidagi maqolalari, A.Xalilbekovning "Namangan adabiy muhiti"³ darsligi va "Ishq bir noyob guhar"⁴ sarlavhali maqolasida shoir she'rlaridagi ilohiy ishq, Allohga muhabbat mavzulari tahlil qilingan. Otabek Jo'raboyevning Majzub Namangoniy hayoti va ijodiga doir maqolalari birlamchi manbalarga tayanilgani, yangi ma'lumotlar berilgani jihatidan qimmatlidir⁵. Professor Nurboy Jabborov doktorlik dissertatsiyasida: "Majzub Namangoniyning qodiriya tariqati murshidi bo'lgani, ayni o'sha davrda Farg'ona vodiysida bu tariqat ancha keng tarqalgani"⁶ haqida yozar ekan, O.Jo'raboyevning Furqat qalamiga mansub "Aylang madad" radifli

² Қайюмий.П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилдлик. Ж.П. – Тошкент: Қўлэзмалар институти. 1998. – Б. 187-190.

³ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1998; shu muallif. Ишқ бир ноёб гуҳар. // Наманган ҳақиқати. 2003 йил, 18 январь.

⁴ Абдуллаев И. Мажзуб Намангонийни биласизми? //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1983 йил 28 январь; shu muallif. Мажзуб Намангоний.// Наманган садоси, 1998 йил 9 май.

⁵Жўрабоев О. Ҳазиний ва Фурқат: рухий-маънавий уйғунлик / Истиқлол йиллари: миллий-диний кадриятларнинг халққа қайтиши. – Тошкент, 2001. – Б. 79-80; shu muallif. Мажзубни биласизми ёхуд мажзубийлик нима? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004 йил 25 июнь; shu muallif. Мажзуб Намангоний ва унинг адабий мероси манбалари хусусида. /Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 33-35.

⁶ Жабборов. Н. Фурқат ҳаёти ва ижодининг хориждаги даври: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 114.

gʻazaldagi “Boʻldingiz shahri Namangonda fano...” soʻzlariga asoslanib, shoir bu orqali Majzub Namangoniyni nazarda tutgan, degan taxminini maʼqullaydi.

Bundan tashqari, “Namangan adiblari”⁷ antologiyasida shoir biografiyasiga oid muxtasar maʼlumot va gʻazallaridan namunalar berilgan. Tadqiqotchi Naima Aliqulova maqolalarida Majzub Namangoniyning tasavvufiy obrazlar yaratishdagi mahorati, gʻazallarida uchraydigan ramziy tizim va ruhiy-intellektual izlanishlarga doir jihatlar tahlilga tortilgan⁸.

Shoir hayoti, maslagi va ijodiga ingliz adabiyotshunoslari ham eʼtibor qaratgani Majzub Namangoniyning tasavvuf adabiyotida tutgan oʻrni baland boʻlganiga dalildir. Karl Ernstning “Sufism: History, Politics and Culture”⁹ asarida shoir gʻazallarining tasavvufiy mohiyati haqida soʻz yuritgan boʻlsa, Ildiko Beller-Hanning “Kashgar Revisited”¹⁰ kitobida ijodkorning tariqat ahlidan ekanligi, ijodining Koshgʻar bilan aloqador jihatlari va uning bugungi avlodlari haqida maʼlumot berilgan. Kawahara Yayoi esa “The Development of the Naqshbandiyya – Mujaddiyya in the Ferghana valley During the 19th and Early 20th Centuries”¹¹ maqolasida Majzub Namangoniyning naqshbandiyya mujaddiyyasiga oid Ofoqxoʻja taʼlimotlari asosida ijod qilgani haqida maʼlumot beradi. Holbuki, shoir qodiriya tariqatiga mansub boʻlgani maʼlum¹². Taʼkidlash kerakki, mazkur tadqiqotlarning barchasida Majzub Namangoniyning ijodi kompleks tadqiq qilinmay, muayyan mavzu jihatidagina munosabat bildirilgan. Ushbu dissertatsiya shoir ijodi monografik asosda oʻrganilgani bilan yuqoridagi ilmiy ishlardan alohida ajralib turadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbek adabiyoti tarixi va matnshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Majzub Namangoniyning adabiy merosining qoʻlyozma manbalari, lirik asarlari matn tarixi, mavzu va janr xususiyatlari hamda badiiyatini kompleks ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Majzub Namangoniyning asarlari qoʻlyozma va toshbosma nusxalarining monografik tavsifini amalga oshirish;

shoir asarlari matn tarixi va tahririni ilmiy-nazariy asosda yoritish;

ijodkor lirik sheʼrlarini mavzuiy tasnif negizida baholash;

Majzub nazmiy asarlarining janr xususiyatlari yuzasidan tahliliy qarashlarni bildirish;

⁷ Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Тошкент, Фан. 2007. – Б. 26.

⁸ Алиқуллова Н. Мажзуб Намангонийнинг адабий мероси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008, 4 сон. – Б. 123-131; Алиқуллова Н. Мажзуб Намангонийнинг “Тазкират ул авлиё” асари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010, 1-сон, – Б. 63-67.

⁹ Karl Ernst. Sufism: History, Politics and Culture. Journal of the History of Sufism. 2017. (3). – P. 213-236

¹⁰ Ildiko Beller-Hann. Kashgar Revisited. –London: BRILL. 2015. – P. 231.

¹¹ Kawahara Yayoi. The Development of the Naqshbandiyya – Mujaddiyya in the Ferghana valley During the 19th and Early 20th Centuries. Journal of the History of Sufism. 2015. (6). – P. 139-186.

¹² Жабборов. Н. Фурқат ҳаёти ва ижодининг хориждаги даври: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 114.

shoir ijodiy niyati ifodasida badiiy san'atlarning tutgan o'rnini aniqlash; ijodkor lirik asarlarida vazn va qofiyaning badiiy-estetik vazifasini oydinlashtirish.

Tadqiqotning obyektini O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 1018, 2125, 2351/II, 2567, 2580/I, 1481, 12503, 1992/II, 1046/I, 1867, 4003, 4206/II, 3156, 1123 raqamlar ostida saqlanayotgan qo'lyozma manbalar, Saudiya Arabistonida va namanganlik muxlislari qo'lida saqlanayotgan "Devoni Majzub Namangoniy" qo'lyozmalari, "Tazkirat ul-avliyo" asarining Tojikiston madrasasi fondidagi nusxasi, "Oshiq manam ..." hamda "Muhabbat sarchashmasi" to'plamlari hamda "Soqiynoma" asari nashrlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Majzub Namangoniy devoni qo'lyozma va toshbosma nusxalarining manbaviy tahlili, asarlarning matn tarixi, shoirning ijodiy uslubi, poetik mahorati va adabiy an'analarga munosabati, asarlardagi tasavvufiy-falsafiy g'oyalar va ularning badiiy talqini kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, matniy-qiyosiy, biografik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Majzub Namangoniy adabiy-ilmiy merosining qo'lyozma va toshbosma manbalari monografik tavsifi amalga oshirilib, Saudiya Arabistonida saqlanayotgan "Devoni Abdulaziz Majzub" hamda Tojikiston madrasasi fondida saqlanayotgan adib qalamiga mansub "Tazkirat ul-avliyo" asarlari qo'lyozmalari ilmiy ustifodaga olib kiritilgan;

shoir asarlarining qo'lyozma va toshbosma manbalari qiyoslanib, matn tarixi, ya'ni manbalardagi tafovutlar sabablari izohlangan; ijodkor asarlariga kotib va muharrirlar tomonidan kiritilgan tahrirlar muqoyasasi natijasida turli lirik janrlarga mansub she'rlarining ishonchli matnlari tiklangan hamda qo'lyozma bayozlardan devonga kirmagan 3 g'azal, 1 muxammas va 1 masnaviy – jami 162 misra she'r yangi aniqlangan;

ijodkorning g'azal, qasida, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma, masnaviy va qit'a singari mumtoz janrlarga oid lirik asarlari *ishqiy, diniy-tasavvufiy, ilm-ma'rifat hamda ijtimoiy-falsafiy* singari mavzularga tasnif etilib, muallif e'tiqodi va maslagi, ijod konsepsiyasi, irfoniy mazmun va poetik ifoda uyg'unligi hamda ijodkor badiiy uslubi nuqtayi nazaridan tahliliy baholangan;

shoirning mumtoz adabiyotda kamdan kam uchraydigan musallas janrida she'rlar bitgani, badiiy san'atlarni qo'llash hamda aruz va qofiya borasidagi mahorati: birinchidan, takrir, talmeh va iqtibos misolida boshdan oxir bir she'riy san'atga asoslangan; ikkinchidan, aruzning ramal, hazaj, rajaz, munsarih va mutaqorib vaznlarida badiiyati yuksak she'rlar bitgani, uchinchidan, mumtoz qofiyaning o'zak tarkibiga asosan *mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas* va raviyning sokin yoki mutaharririk bo'lishiga ko'ra *mutlaq* va *muqayyad* kabi turlaridan mahorat bilan istifoda etgani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Majzub Namangoniy asarlarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari qiyosiy-matniy tahlil etilib, qo‘lyozma bayozlardan ilm ahliga ma‘lum bo‘lmagan va shoir devoniga kiritilmagan 3 g‘azal, 1 muxammas va 1 masnaviy – jami 162 misra she‘r aniqlangan;

shoir asarlarining matn tarixini o‘rganish asosida keyingi ilmiy tadqiqotlar va akademik nashrlar uchun muhim manba sifatida xizmat qiladigan ishonchli matnlari tiklangan;

ijodkor lirik she‘rlari: *ishqiy, diniy-tasavvufiy, ilm-ma‘rifat va ijtimoiy-falsafiy* mavzularga tasnif etilib, sharq mumtoz poetikasi talablari asosida tahlil etilgan;

Majzub Namangoniyning g‘azal, qasida, musallas, murabba‘, muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma, masnaviy va qit‘a singari mumtoz janrlarga oid lirik asarlari monografik aspektida tadqiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi “Devoni Abdulaziz Majzub”ning O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, Saudiya Arabistoni va Tojikistonda, shuningdek, namanganlik muxlislari qo‘lida saqlanayotgan sahih matnlaridan foydalanilgani, qiyosiy-matniy tadqiq usuli qo‘llangani, tahlil etilgan materiallar matnshunoslik ilmining so‘nggi yutuqlari asosida baholangani, ilmiy qarashlarning tayanch va yordamchi manbalar qiyosi asosida isbotlangani, ilmiy yangiliklardan amaliy loyihalarda foydalanilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslik tadqiqotlarida sinovdan o‘tgan zamonaviy ilmiy konsepsiyalarga tayanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matnshunoslik va adabiy manbashunoslik hamda adabiyotshunoslikka oid nazariy qarashlarni boyitishi, xususan matn tarixi, tahlili va talqini masalasining matnshunoslik va adabiy manbashunoslik shu bilan bir qatorda adabiyotshunoslik rivojidagi o‘rnini belgilashga hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan magistratura va bakalavriyat bosqichlari uchun “Matnshunoslik”, “Matnshunoslik nazariyasi”, “Adabiy manbashunoslik tarixi”, “Matn tahriri”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tasavvuf adabiyoti” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish, ilmiy ma‘ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligi izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Majzub Namangoniy adabiy merosi manbalari, matn tarixi va badiiyati tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Majzub Namangoniy asarlarining qo‘lyozma va toshbosma manbalari qiyoslanib, matn tarixi, ya‘ni manbalardagi tafovutlar sabablari izohlangan; ijodkor asarlariga kotib va muharrirlar tomonidan kiritilgan tahrirlar muqoyasasi natijasida turli lirik janrlarga mansub she‘rlarining ishonchli matnlari tiklangan hamda qo‘lyozma bayozlardan devonga kirmagan 3 g‘azal, 1 muxammas va 1 masnaviy – jami 162 misra she‘r yangi aniqlanganligi; ijodkorning g‘azal, qasida, musallas, murabba‘, muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma, masnaviy va qit‘a singari mumtoz janrlarga oid lirik asarlari *ishqiy, diniy-tasavvufiy, ilm-ma‘rifat hamda ijtimoiy-falsafiy* singari mavzularga tasnif etilib, muallif e‘tiqodi va maslagi,

ijod konsepsiyasi, irfoniy mazmun va poetik ifoda uyg'unligi hamda ijodkor badiiy uslubi nuqtayi nazaridan tahliliy baholangan ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-2024- yillarda bajarilgan "AL-662205561 raqamli "Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish" nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-martdagi 04/1-867-son ma'lumotnomasi). Natijada shoir ijodida ko'zga tashlanadigan asosiy mavzular tasnifi va ularning badiiy-falsafiy ahamiyati ochib berilganligi bilan bog'liq ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta'minlagan;

Majzub Namangoniy adabiy-ilmiy merosining qo'lyozma va toshbosma manbalari monografik tavsifi amalga oshirilib, Saudiya Arabistonida saqlanayotgan "Devoni Abdulaziz Majzub" hamda Tojikiston madrasasi fondida saqlanayotgan adib qalamiga mansub "Tazkirat ul-avliyo" asarlari qo'lyozmalari ilmiy ustifodaga olib kirilganligi haqida ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan "IL-402104474 raqamli "bolalaradabiyoti.uz" elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-martdagi 04/1-868-son ma'lumotnomasi). Natijada Majzub Namangoniy asarlari matnlarini turli nusxalar asosida qiyosiy tahlil qilish, nusxalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash va ularning tahririy bosqichlari, shoirning poetik mahorati, badiiy uslubi hamda adabiy an'analarga munosabati bilan bog'liq ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta'minlagan;

Majzub Namangoniyning respublika va xorijiy fondlarga saqlanayotgan adabiy merosiga oid ma'lumotlardan "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Tamaddun darg'alari" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 28-martdagi 01-30/194-son ma'lumotnomasi). Natijada shoir asarlari manbalarini to'liq to'plash, ularni qiyosiy-matniy tadqiq etish, lirik asarlarini tahlil etish, ijodkorning milliy fanimizda tutgan o'rnini baholashda, shuningdek, "Devoni Majzub Namangoniy" devonidagi lirik janrlarga oid ilmiy xulosalardan foydalanildi;

Majzub Namangoniy shoirning mumtoz adabiyotda kamdan kam uchraydigan musallas janrida she'rlar bitgani, badiiy san'atlarni qo'llash hamda aruz va qofiya borasidagi mahorati: birinchidan, takrir, talmeh va iqtibos misolida boshdan oxir bir she'riy san'atga asoslangan; ikkinchidan, aruzning ramal, hazaj, rajaz, munsarih va mutaqorib vaznlarida badiiyati yuksak she'rlar bitgani, uchinchidan, mumtoz qofiyaning o'zak tarkibiga asosan *mujarrad*, *murdaf*, *muqayyad*, *muassas* va raviyning sokin yoki mutaharrik bo'lishiga ko'ra *mutlaq* va *muqayyad* kabi turlaridan mahorat bilan istifoda etgani asoslangan ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023- yillarda bajarilgan "PF-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan

(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-martdagi 04/1-869-son ma’lumotnomasi). Natijada shoir lirikasida g‘azal, muxammas, masnaviy, qasida, soqiynoma, ruboiy, fard kabi janrlarning bu davrda faol adabiy hodisa sifatida baholangan ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta’minlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 2 tasi yuqori impakt-faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Shoir asarlarining manbalari va matn tarixi**” deb nomlanib, birinchi faslida “**Shoir biografiyasiga doir ma’lumotlar va qo‘lyozma manbalarning monografik tavsifi**” yoritilgan. Shoirning tug‘ilgan joyi manbalarda turlicha yozilgan. Ayrim manbalarda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan deyilsa, ba’zilarida qadimiy Nasafda deb yoziladi. Hatto, Piskentda degan qaydlar uchraydi. Ammo shoir devonining O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 2125 raqamli qo‘lyozmasida Namakkon ya’ni Namangan shahridagi Degrezlik dahasining hozirgi Sumalak guzari mahallasida dunyoda kelgani aytilgan¹³. Shoir avlodlari qo‘lida saqlanib kelayotgan “Devoni Majzub Namangoniy” qo‘lyozmasida ham shunday ma’lumot berilgan¹⁴.

Majzub Namangoniy devoni qo‘lyozmalari hozirda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida, shuningdek, Hamid Sulaymon fondida 1992, 1018/I, 4206/II, 12503, 1046/I, 4003, 1867, 2125, 1481, 2580/I, 2351/II, 2567, 2662 raqamlari bilan saqlanmoqda. Devon nusxalari, shuningdek, shoirning namanganlik muxlisi Habibulloh Akmalxon Maxdum o‘g‘lining hamda tojikistonlik Sodirjon ismli kishining shaxsiy

¹³ Majzub Namangoniy. Devoni Majzub Namangoniy. O‘zRFA ShI qo‘lyozmalar fondi. 2125 raqamli qo‘lyozma. 96^b sahifa.

¹⁴ Qarang: Majzub Namangoniy. Devoni Majzub Namangoniy (Shoir avlodlari qo‘lida saqlanib kelayotgan devon). Devonning boshlanmasida shoir asl ismi Abdulaziz, otasining ismi Abdurahmon. Abdurahmon Naqshbandiya suluki so‘fiylaridan ekanligi. Namanganda Sumalak guzarida yashaganligi yozib o‘tilgan.

kutubxonalarida hamda Saudiya Arabistonida istiqomat qilayotgan avlodlari qo'lida ham saqlanadi. Bundan tashqari, namanganlik olim Odiljon Nosirovning avlodlari qo'lida ham shoirning bir qo'lyozma devoni mavjud.

Shuningdek, shoir lirik asarlari jamlangan manbalar Namangan viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyi Adabiyot va san'at bo'limi fondida ham bor. Qo'lyozma devon nasta'liq xatida ko'chirilgan. Majzub lirik asarlari ko'chirilgan qo'lyozmalar sahifalari ziynatlanmagan. She'rlar alohida jadvallarga olinmagan, raqamlanmagan. She'rlar alifbo tartibida emas, tartibsiz ko'chirilgan. Ayrim hollarda sarlavhalar ham ajratilmagan. Ba'zi qo'lyozmalarining oxiri yo'q, ko'plab sahifalar noto'g'ri muqovalangan.

Qo'lyozma va toshbosma manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Majzub Namangoniy o'z she'rlarini jamlab devon tartib bergan. Matnshunos olim, akademik Sh.Sirojiddinov fikricha: "Devon qo'lyozmasi matn va sarlavhalar, shuningdek, miniatyuralar atrofida tortiladigan jadvallar, shams, unvon – qo'lyozmaning ilk sahifasi bosh qismida tilla suvi yugurtirib chizilgan naqsh-lavh, sahifalarga oltin suvi bilan jilo berish (tazhib) kabi bezaklar bilan ziynatlanadi. Albatta, bunday devonlar qimmatbaho bo'lib, ular, asosan, shoh farmoniga asosan saroy kutubxonasi yoki sovg'a uchun tayyorlangan"¹⁵. Lekin Majzub devonini biror ulug' kishiga va yoki podshohga tuhfa qilish maqsad qilinmagan. Shundan bo'lsa kerak, shoir she'rlari ko'chirilgan qo'lyozmalar ziynatlardan xoli. Devon qo'lyozmalarining bezaklarga boy bo'lishi nafaqat estetik qadriyat, balki ularning tarixiy, madaniy va hatto siyosiy ahamiyatini ham ochib beradi. Ayniqsa, tillasuvli naqshlar, sahifalarga berilgan jilolar va miniatyuralar atrofidagi bezaklar qo'lyozmaning san'at asariga aylanishida muhim rol o'ynaydi. Bunday nodir nusxalarning shoh farmoni asosida saroy kutubxonalari yoki diplomatik sovg'a sifatida tayyorlangani – o'sha davrda yozma madaniyatning naqadar yuksak qadrlanganidan dalolat beradi.

Nazariy adabiyotlarda qo'lyozma manbalarni tavsiflashda *qo'lyozmaning ashyo (inventar) raqami, asarning nomi, asarning yozilgan yili, muallifi, asarning qisqacha mazmuni, qo'lyozma haqidagi umumiy ma'lumotlar, asarning ko'chiruvchisi (kotibi), ko'chirish yili, necha varaqdan iboratligi, o'lchovi* kabi jihatlarni e'tiborga olish tavsiya etiladi¹⁶. Ishda Majzub devoni ana shu asosda tavsiflandi.

1992 raqamli qo'lyozma. ديوان مجذوب ("Devoni Majzub"). Qalin karton bilan muqovalangan bo'lib, naqshlangan. Qo'lyozma sherozasi ko'k rangdagi charmdan ishlangan. Matn nasta'liq xatida bo'lib, Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan qo'lyozma ancha uringan. Ayrim sahifalar teskari qo'shib tikilgan. 2^b-sahifa tepasida "Kitobi Mavlono Majzub Namangoniy, 1297 hijriy" degan yozuv bor. Asosiy matn shu sahifadan boshlanadi. Mazkur qo'lyozma manbaga shoirning masnaviy, g'azal, muxammas, murabba', munojot, tarje'band, soqiynoma kabi lirik asarlari jamlangan. Qo'lyozmada masnaviyalar 1^b-4^b, tanlangan g'azallar 4^b-52^b, muxammaslar 17^a-19^b, murabba'lar 19^b, 20^a, 31^{ab}, 38^b, 40^b sahifalarda, munojot

¹⁵ Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 39.

¹⁶ Хасаний М., Хабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. –ТДШИ, 2012. – Б. 90-91.

mazmunidagi she'ri 52^b-54^a, soqiynoma esa 54^b-64^a sahifalarda ko'chirilgan. Devondagi she'rlar janrlar ketma-ketligida bo'lmasa-da, lekin alifbo tartibida joylashtirilgan.

Ta'kidlanganidek, matn 2^b sahifada "Bismillohir-Rahmonir-Rahim" dan so'ng:

خدای تبارک خدای تعالی
اوزونک هادی یول آچغیل ای حق تعالی

(Xudoy taborak, Xudoy taolo,
O'zung hodiy, yo'l ochg'il, ey Haq taolo) bayti bilan boshlanib,
64^a-sahifadagi:

اوشل شربت اوچون کدالیق قیلدی
مغ ایشیکیده بینوالیق قیلدی

O'shal sharbat uchun gadoliq qildi,
Mug'eshigida benavoliq qildi –

matla'li she'r bilan yakunlanadi. Qo'lyozma matni esa 65^b-sahifada tugaydi. Kolofon quyidagicha (64^a):

کمینه فقیر الحقیر میر محمود قاری خوقندی نینک قولیده تحریر بولدی بو دیوان مولانا
مجنوب نمکنانی ... سنه ۱۲۹۷.

(Kamina faqir ul-haqir Mir Mahmud Qoriy Xo'qandiyning qo'lida tahrir bo'ldi bu devoni mavlono Majzub Namangoniy...sanai 1297)¹⁷.

64^b-65^b sahifalar orasida Qoriyga tegishli uchta she'r ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozmaning kotibi Mir Mahmud Qoriy Xo'qandiy (میر محمود قاری خوقندی) hisoblanadi. Devonning ko'chirilish sanasi – 1297 (1879–1880)-yilga to'g'ri keladi. Qo'lyozma o'lchami: 26,5x16 sm.

Devon matni boshdan oxirigacha qora siyohda ko'chirilgan. Sahifalarda poygilar bor. Lekin sahifalar raqamlanmagan. Qo'lyozma matni sifatsiz. Yirtilgan sahifalar bor.

1018/I raqamli qo'lyozma 164 sahifadan iborat. Qo'lyozma matni 1^b-sahifadagi mana bu bayt bilan boshlanadi:

الهی عبدک العاصی اتاکا
الذنوب قد دعاکا مقرا با

Oxirgi she'r esa fors tilidagi:

مجنوب تا شود همه عالم مسخرت
تیغ از دعا طلب کن از سجده خسروی

maqta'li g'azal bilan yakunlangan.

Kolofon quyidagicha (164^{ab}):

... سنه ۱۳۰۸ بود که کاتب خاکسار محمد شریف مرزا باشی ولد ملا محمد کریم
قندالات ابن حاجی محمد حسین کتابت را تمام نمود.

Mazkur qo'lyozmadagi matn nasta'liq xatida och jigarrang sayqallangan Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. Ushbu manbada ham she'rlar har sahifada ikki ustun qilib ko'chirilgan. Qo'lyozma kotibi – Mulla Muhammad Karim Qandolat ibn Xoja Muhammad Husaynning o'g'li Muhammad Sharif Mirzoboshi bo'lib, devon 1308 (1890–1891)-yilda kitobat qilingan.

¹⁷ O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. 1992 raqamli qo'lyozma. 64^a-sahifa.

4206/II raqamli qo‘lyozma. Muqovasi qizil rangli qalin karton qog‘ozdan ishlangan. Qo‘lyozma sherozasi ko‘k rangli matodan ishlangan. Matn Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. Qo‘lyozma jami 203 sahifani tashkil etib, ikki qismdan iborat. Uning ikkinchi qismi 110^a-sahifadan boshlanadi. Shu sahifa tepasida: “Devoni Majzubdan” deyilib, har sahifada o‘rtacha 9 baytdan she‘r ko‘chirilgan. Ushbu manbada shoirning g‘azal, masnaviy, muxammas, soqiynoma janrlariga mansub nazmiy asarlari jamlangan. G‘azallar alifbo tartibida ko‘chirilgan bo‘lsa-da, she‘rlar negadir, “ر” (re) harfi bilan tugagan g‘azallar bilan boshlangan. Qo‘lyozmada g‘azallar 110^a-164^a-sahifalarda ko‘chirilgan. Biroq g‘azallar orasiga masnaviy (113^a-118^a) va muxammaslar (164^b-172^a) ham qo‘shib ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 172^a-190^b-sahifalarida soqiynoma, 190^b-195^b- sahifalarda “بلال قصة حضرت” (“Hazrati Bilol qissasi”), hamd mazmunidagi she‘rlar, (196a-198a), siyarnoma mazmundagi parchalar (198^b-200^b) hamda tasavvufiy xarakterdagi (201^b-203^b) masnaviy ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning boshi:

که برق عشقیدین عالم غه اینغان شورش دن دور
نیلیغ دیسنک حزین فرهاد بیرله ایکی اورتاغی

Oxiri esa quyidagicha:

اوشل شربت اوچون کدالیق قیلاى
مغ ایشیکیده بینوالیغ قیلاى

Kolofon bo‘lmagani sababli qo‘lyozmaning kotibi noaniq. Ko‘chirilgan sanasi: 1315/1897-1898-yillar.

Dissertatsiyada, bundan tashqari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 1046/I, 1867, 2125, 2351, 12503, 1046/I, 4003, 1867, 1481, 2580/I, 2567, 2662 raqamli qo‘lyozmalar ham mufassal tavsif etilgan.

Tadqiqotning 1.2 fasli **“Ijodkor asarlari matn tarixi va tahriri”** tadqiqiga bag‘ishlangan. Ijodkor asarlarining matn tarixini o‘rganish ularning ijod qilinishi jarayonidan kitobat etilishi, qo‘lyozma holida tarqalishi va nashr nusxalarigacha bo‘lgan harakatini o‘z ichiga oladi. Chunki “Matn tarixi qo‘lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko‘chirgan kotibning dunyoqarashi va g‘oyasini o‘rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo‘lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari tadqiqigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi”¹⁸. Ilmiy tadqiqotlar shoirning lirik asarlari matn tarixini o‘rganishda quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi:

a) *asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni;*

b) *joriy nashrlarda ijodkor asarlari matni masalasi;*

d) *ijodkor asarlari ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog‘liqligi.*

Asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni. Shoirning tasavvufiy ruhdagi “Voy nuqsdin munazzah”

¹⁸ Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилохларининг ўрни / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишининг назарий ва манбавий асослари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. – Б. 12.

radifli 9 baytli gʻazali keyinchalik 9 bandli 45 misrali muxammasga aylantirilgan. Muxammasning bir bandida quyidagicha yozadi:

*Tangri taol sevanlar rad boʻlmadi duosi,
Lekin tilak tilamas, maqsadlari rizosi,
Olam eli tanimas kim boʻlsa oshnosi,
Rabbim Sani sevarlar onlarni oshnosi,
Ey aybdin mubarro, voy nuqsdin munazzah.*

Dastlab gʻazal tarzida yozilganda, shoir ijodiy rejasidagi irfoniy mazmun toʻlaqonli ifodalanmagani bois uni kattaroq janr – muxammasga aylantiradi. Natijada ijodkor oʻylagan badiiy-tasavvufiy mohiyat muxammasda keng va mufassal ifodalanishiga erishilgan. Ushbu muxammas irfoniy-estetik mazmuni toʻlaqonli aks ettirgan boʻlib, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirgʻoniy, Jomiy va Navoiy kabi tasavvuf shoirlari ijodiga yaqin turadi.

Joriy nashrlarda ijodkor asarlari matni masalasi. “Devoni Majzub Namangoniy”dagi lirik sheʼrlarning tabdili Ahmad Ubaydulloh tomonidan “Oshiq manam...” toʻplamida chop etilgan¹⁹. Ushbu nashrga 1018-raqamli qoʻlyozma hoshiyasidagi matn asos qilib olingan. Qiyosiy-matniy tahlil natijalari nashr nusxaning asliyatga muvofiq emasligini koʻrsatadi. Gʻazalning nashr variantida qoʻlyozmada manbagi matnda mavjud boʻlgan 6-bayt tushirib qoldirilgan:

*Shamʻ-u lola, sarv-u nasrin, yosuman sevdi ulus,
Nuri chehra bizga qomat rost-u xush raftori bor.*

OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar institutining Hamid Sulaymon fondida 1481 raqami ostida saqlanayotgan qoʻlyozmada shoirning bir gʻazali quyidagicha berilgan:

Ayt salovot-u salom Ahmadga va oli asʻhobgʻa,
Yori gʻor, Foruq-u Usmon sheri Allohdin gapur.

Ahmad Ubaydulloh tabdil qilgan “Oshiq manam ...” devonida bu bayt quyidagicha uchraydi:

Oyat salovotu salom Ahmadgʻa va oli, sahibgʻa,
Yori gʻori, Umar, Usmon, Sheri Allohdin gapur.

Nashr nusxada baytdagi “ayt” soʻzi “oyat” tarzida xato tabdil etilgan. Foruq nisbasi tabdil davomida Umar ismiga almashtirilgan. “Foruq” aslida xalifa Umar roziyallohu anhuning kunyasi ekani maʼlum. Lekin Majzub uning nisbasidagi haq bilan botinli ajratuvchilik mazmuniga urgʻu bergani eʼtiborga olinsa, uning ismga aylantirishi shoir ijodiy niyatiga muvofiq emasligi ayon boʻladi. Bunday nojoiz tahrir matnni zaxa yetkazadi.

Matnshunos Shuhrat Sirojiddinov matn tarixini tadqiq etish jarayoni bosqichlarini batafsil yoritib beradi. Olimning yozishicha: “Matn tarixini oʻrganish qoʻlyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi. Matnlar **toʻliq, nuqsanli, tuzatilgan** (redaksiyaga uchragan) yoki **tugatilmagan** koʻrinishlarda uchraydi. Qoʻlyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita

¹⁹Majzub Namangoniy. Oshiq manam...Devon. (Nashrga tayyorlovchi: Ahmad Ubaydulloh). – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020. – B. 19.

aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi”²⁰. Olim ta’kidlaganidek, qo‘lyozma asarlarning turli nusxalarini qiyosiy tahlil qilish matn tarixini aniqlashda asosiy bosqich hisoblanadi. Qo‘lyozmalar orasida farqlar bo‘lishi tabiiy jarayon bo‘lib, ular matnning rivojlanish bosqichlarini, nusxalarning sifatini hamda matn ustida qilingan tahrirlar darajasini aniqlashga yordam beradi. Nusxalar to‘liq, nuqsonli yoki tahrirlangan bo‘lishi mumkinligi matnshunosni ehtiyotkorlik bilan ishlashga, mavjud tafovutlarni puxta o‘rganishga undaydi. Ayniqsa, qo‘lyozmalardagi bevosita yoki bilvosita belgilar asosida matn tarixini tiklash ilmiy izlanishlar davomida aniqlik va ishonchlilikni ta’minlash uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Majzub lirik asarlarining qo‘lyozma manbalardan o‘rin olishi dissertatsiyada qiyosiy jadval orqali keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Majzub Namangoniy she’riyati mavzu ko‘lami va janr xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, 2.1 faslda “*Shoir lirik asarlarining mavzuiy tasnifi*” keltirilgan. Shoirning bizga ma’lum nazmiy merosining mavzu mundarijasi rang-barang bo‘lib, uni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) *ishqiy*; 2) *diniy-tasavvufiy*; 3) *ilm-ma’rifat mavzusi*; 4) *ijtimoiy-falsafiy*.

Ishqiy mavzu. Majzub Namangoniy adabiy merosining ma’lum bir qismini ishqiy lirika tashkil etgan bo‘lib, bu mavzu deyarli barcha janrdagi she’rlarida teran mazmun va go‘zal badiiy shakl mutanosibligida talqin etilgan. Ularda ijodkor visol lazzati, ayriliq iztiroblari, oshiq va ma’shuqa (banda va Haq) munosabatlariga ko‘p bora murojaat etadi. Majzub bu mavzuda she’r yozishni ijodining ilk bosqichida boshlagan bo‘lib, uning ishqiy lirikasi, asosan, g‘azal janrida yaratilgan. Negaki, g‘azal lug‘aviy ma’noda arabcha ayolni madh etish, unga oshiqona munosabatda bo‘lish ma’nosini anglatadi. Istilohiy ma’noda esa, majoziy ishq vositasida ishq haqiqiyini talqin etishga qaratiladi. Majzub ijodida ham ayni shu xoslar ishq ifodalangan. Majoz vositasida Haq visoli, unga erishish yo‘lidagi sabr-u sabot, zavq-u shavq ruhi ustunlik qiladi. Mumtoz she’riyatda ishq-muhabbat talqini darajasi har qanday ijodkor ijodiy barkamolligini belgilovchi mezondir. Darhaqiqat, Majzub lirik shoir sifatida pok xislat – ishq-muhabbatni chuqur ehtiros va zavq-shavq bilan kuyladi. Ishqni o‘ziga xos uslubda talqin etib, qalb kechinmalarini lirikaga soladi. Uning g‘azallari ishq-muhabbat mavzusidagi an’anani davom ettirish barobarida obrazlar tasviri-yu talqinini, she’riy san’atlarni qo‘llashda o‘zgachalikka intilganini ko‘rsatadi. Shoir muqaddas tuyg‘u hisoblangan – muhabbat tasviri uchun takrorlanmas ifoda usullari-yu beqiyos badiiy o‘xshatishlarni qo‘llaydi, she’rda ifodalangan tuyg‘ulariga mos takrorlanmas qofiya va radiflar izlaydi.

Tarab ayla ey mutribi dilfirib,

*Muhabbat qilidin necha tor etib*²¹.

O‘zbek adabiyotida “Etib” radifida ko‘plab g‘azallar ijod etilgan. Jumladan, bu radifda Navoiy, Bobur, Amiriy, Fazliy, Nodira, Uvaysiy singari shoirlar g‘azal bitgani ma’lum. Ifodalanmoqchi bo‘lgan mavzu va kechinmalar uchun bu radifni

²⁰ Сирожиддинов Ш. Матншunoslik сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 18.

²¹ Majzub Namangoniy. Devoni Majzub. O‘zb R FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. 12503 inv.raqamli qo‘lyozma 21^b sahifa. Keyingi o‘rinlarda qavs ichiga sahifa ko‘rsatiladi.

tanlar ekan, Majzub Namangoniy salaflari va zamondoshlari bo‘lgan din ulamolarining qilgan yaxshi ishlarini muhabbat ruhida ko‘rsatishga kirishadi.

*Ishq varzi sarvari mulki malohat o‘luram,
Husn iqlimi shahridin to‘la xizmatkori bor.(35^b)*

Ilohiy ishq va husn konsepsiyasini o‘zida jamlagan baytda, shoir ishqni faqat bir tuyg‘u emas, balki go‘zallik saltanatining “sarvari” – ya’ni sultoni, hukmdori sifatida talqin qilmoqda.

Diniy-tasavvufiy mavzu. O‘zbek mumtoz adabiyotini tasavvuf ta’limotidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Diniy obrazlar xususida ham shunday deyish mumkin. Chunki: “Tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy, falsafiy, badiiy tafakkuridan keng o‘rin egallagan va ko‘p tarmoqli murakkab ta’limot”²²dir. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, bu ta’limot tarix davomida faqat diniy yoki ruhiy yo‘l sifatida emas, balki turli xalqlarning madaniy-ma’naviy shakllanishida markaziy o‘rin egallagan chuqur tafakkur tizimi ekanini ta’kidlash kerak. Tasavvufning eng muhim xususiyatlaridan biri – uning ruhiyat tarbiyasiga qaratilgani. Arab, fors, turkiy, hind, hatto g‘arbiy madaniyatlarga ham u bevosita yoki bilvosita shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqiga ta’sir ko‘rsatgan. Chunki tasavvufning asosiy tamoyillari - ma’naviy yuksalish, qalbni hirs-u havasdan, nafs istaklaridan poklash orqali Haq taolo muhabbatiga erishish bo‘lgan. Bu esa, insoniyatning ma’naviy kamolotiga, ruhiy yuksalishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham u turli xalqlar ehtiyojiga muvofiq kelgan va keng miqyosda qabul qilingan.

Majzub Namangoniyning axloqiy va diniy-tasavvufiy mazmundagi “Tazkirat ul-avliyo”, “Manoqibi ahli suluk” tazkiralari hamda tasavvuf ilmiga oid “Dar tavzeh” (“Oydinlashtirish”) asaridagi g‘oyalar she’riyatiga ham ko‘chgan. Shoirning shu paytgacha ilmiy asosda tahlil etilmagan “Ravzayi ko‘ngilda”, “Xamladi qaddimni”, “Mutrib tarabing”, “Salom”, “Oriy manam, manam manam”, “Etib”, “Aylanib”, “Qalandar”, “Behishti dil”, “Gapur”, “O‘zgacha”, “Bu kun”, “Ayladi”, “Bu dog‘i” kabi radifli g‘azallari va bir qator muxammaslari tadqiqi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Professor Ismatilla Abdullayevning ba’zi maqola va kitoblarida²³, Alixon Xalilbekov²⁴, Otabek Jo‘raboyev²⁵ va Naima Aliqulova²⁶ lar e’lon qilingan maqolalarida ham Majzub Namangoniyning adabiy merosi, she’rlarining g‘oyaviy xususiyatlari yoritilgan. Lekin mazkur tadqiqotlarda shoir ijodida salmoqli o‘rin tutuvchi diniy-tasavvufiy mohiyat tahlil etilgan emas. Holbuki, Majzub Namangoniyning diniy-tasavvufiy asarlari, asosan, Allohga hamd va Payg‘ambar alayhissalomga na’t mavzusidagi asarlar bo‘lib, g‘azal, masnaviy, muxammas,

²² Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Фафур Фулом, 1991. – Б. 3

²³ Абдуллаев И. Мажзуб Намангонийни биласизми? / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1983 йил, 28-январ. // Мажзуб Намангоний. Наманган садоси, 1998, 9 май. // Марказий Осиёда ислом маданияти. – Тошкент, 2005. – Б. 206-207.

²⁴ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Фафур Фулом, 1998. 39-40-бетлар; Шу муаллиф. Ишк бир ноёб гуҳар. Наманган ҳақиқати, 2003-йил 18-январь.

²⁵ Жўрабоев О. Мажзуб Намангоний ва унинг адабий мероси манбалари хусусида. / Ўзбек тили ва адабиёти масалалари тўплами. – Тошкент, Фан, 2005. // Мажзубни биласизми? Ёхуд мажзубийлик нима. / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2004, 25 июнь.

²⁶ Алиқулова Н. Мажзуб Намангонийнинг адабий мероси / Ўзбек тили ва адабиёти. 2008, 4 сон. // Мажзуб Намангонийнинг “Тазкират ул – авлиё” асари ҳақида. / Ўзбек тили ва адабиёти. 2010, 1-сон.

qasida, murabba, musaddas janrlarida yaratilgan. Shoir gʻazallarida Muhammad alayhissalomning “Toho”²⁷, “Yosin”²⁸ kabi sifatlariga ishora qilar ekan, Qurʼon oyatlaridan iqtibos oladi. Diniy-maʼrifiy mazmuni iqtibos va aqd sanʼatlari asosida teran va sanʼatkorona ifodalaydi:

*Oʻqu “Subhonallaziy”, “Toho va Yosin”, ey axiy,
Ham “Alam nashroh”ni tafsirini koʻr, ey oshno.*

Ushbu baytda toʻrt oyatdan qisman iqtibos olish orqali shoir Paygʻambar alayhissalom haqlarida nozil boʻlgan ilohiy xabarlarga ishora qiladi. Rasulullohning ulugʻ moʻjizasi – Meʼrojni, ul zotning sifatleri hamda xulqlarini vashf etadi. Dissertatsiyada ushbu mavzu keng va batafsil tadqiq qilingan.

Ikkinchi bobning 2.2 faslda **“Janrlar poetikasi”** tadqiq etilgan. Manbalar tahlili Majzub Namangoniy mumtoz sheʼriy janrlarning koʻplab turlarida ijod etganini koʻrsatadi. Jumladan, shoir asarlari mavjud manbalarda uning gʻazal, masnaviy, musallas, murabba, muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma, qitʼa va qasida kabi lirik asarlari koʻchirilganini kuzatish mumkin. Ular turkiy va fors-tojik tilidagi sheʼrlardir. Shoir lirik asarlari janrlari, ularning soni, hajmiga doir statistik maʼlumotlar dissertatsiyada alohida jadval koʻrinishida keltirilgan.

Majzub Namangoniy merosida gʻazal janrida ijod etilgan lirik asarlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Abduqodir Hayitmetovning “Navoiy lirikasi”²⁹, Odiljon Nosirovning “Oʻzbek adabiyotida gʻazal”³⁰ monografiyasi, Nusratilla Jumaxoʻjaning “Munisning badiiy mahorati”³¹ dissertatsiyasi, Dilnavoz Yusupovanning “Aruz va mumtoz poetikaga kirish”³² darsliklarida gʻazallarni tasniflash borasida turlicha fikrlar bor. Abduqodir Hayitmetov: “Navoiy oʻz gʻazallarini va umuman gʻazallarni gʻoyaviy-tematik jihatdan shartli ravishda uch turga boʻladi: 1. Oshiqona gʻazallar. 2. Rindona gʻazallar. 3. Orifona gʻazallar”³³ deb yozgan. Odil Nosirov esa oʻzbek mumtoz adabiyotda gʻazallarni shartli ravishda quyidagicha tasnif qiladi: oshiqona; orifona; rindona; hajviy va yumoristik; axloqiy-taʼlimiy; peyzaj; publitsistik³⁴. A.Hayitmetov Navoiyning “Badoyi ul-bidoya” devonidagi tahlil etish mobaynida shoir devoniga hamd, naʼt va mavʼiza gʻazallar ham borligini taʼkidlaydi³⁵. Dilnavoz Yusupova gʻazallarni quyidagicha tasniflagan: **I. Qofiyalanishiga koʻra:** 1. Oddiy yoki odatiy gʻazallar; 2. Gʻazali husni matla; 3. Gʻazali qitʼa; 4. Gʻazali musajja; 5. Gʻazali mulamma; 6. Gʻazali muvashshah; 7. Gʻazali mushoira; 8. Gʻazali zulqofiyatayn; 9. Gʻazali zulradifayn; 10. Gʻazali zebqofiya. **II. Kompozitsion jihatidan:** 1. Parokanda; 2. Voqeaband gʻazallar. **III. Gʻoya va mavzusiga koʻra:** 1. Hamd; 2. Naʼt; 3. Oshiqona; 4. Orifona; 5. Rindona;

²⁷ Qurʼoni Karimning Makkada nozil boʻlgan 20-surasi, 135 oyatdan iborat.

²⁸ Qurʼoni Karimning Makka shahrida nozil boʻlgan surasi. 83 oyatdan iborat.

²⁹ Хайитметов А. Навоий лирикасининг. (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). – Тошкент: Oʻzbekiston, 2015. – Б 18.

³⁰ Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкен: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 78-79.

³¹ Жумаев Н. Муниснинг бадий маҳорати. Филол.фан.номз... дисс.автореф. – Тошкент. 1983. – Б. 26.

³² Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. –Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 171-181.

³³Хайитметов А. Алишер Навоий лирикасининг баъзи масалалари / Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 18.

³⁴Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкен: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 78-79.

³⁵Хайитметов А. Алишер Навоий лирикасининг баъзи масалалари / Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 18.

6. Axloqiy-ta'limiy; 7. Ijtimoiy-falsafiy; 8. Hajviy; 9. Peyzaj va boshqalar³⁶ kabi turlarga bo'lgan. Bizningcha, ushbu tasnif asosida yondashilsa, nazariy jihatdan asosliroq bo'ladi.

Majzub Namangoniy ijodida ham g'azallar qofiyalanishiga ko'ra: oddiy, g'azali husni matla, g'azali qit'a, g'azali mulamma, g'azali muvashshah; kompozitsion jihatdan parokanda va voqeaband; g'oya va mavzusiga ko'ra: hamd, na't, oshiqona, orifona, rindona, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy g'azallar mavjud.

Tolibo, so'zlar esang albatta Alloh din gapur,

Olaming'a Haq yuborg'on Hadyatullohdin gapur.

Qasida adabiyotshunoslikda keng tarqalgan janrlardan biri bo'lib, arablarning juda katta adabiy janri hisoblanadi. "Qasida adabiy termin sifatida lirik turning o'n besh baytdan kam bo'lmagan, birinchi bayt misralariga boshqa baytning ikkinchi misralari qofiyadosh bo'lgan (a-a, b-a, c-a, d-a kabi) janrni bildiradi. U muallifning shaxsiy hayajoni va ichki kechinmalari ifodalangan she'r turi bo'libgina qolmay, balki turli-tuman badiiy vositalar orqali ulug' ma'nolar, siyosiy va falsafiy fikrlarni keng talqin etuvchi badiiy asardir"³⁷.

Islom madaniyati va adabiyoti paydo bo'lgandan keyin, qasida janrining ma'no-mazmuni yanada kengayadi. Bu davrdan e'tiboran Yaratganga hamd va Muhammad (s.a.v.)ga na't qasidalar paydo bo'la boshladi. Nasib siqmining mavzulari ham kengaya boshladi. Unga ko'ra qasidalar bahoriya (bahor tasviri), iydiya (bayram tasviri) shitoiya (qish tasviri), ramazoniya (Ramazon tasviri), raxshiya (ot tasviri), hammomiya (hammon tasviri) kabilarga; **radiflariga ko'ra**, suv qasidasi, suxan qasidasi, gul qasidasi, sunbul qasidasi; **mavzulariga ko'ra**, tavid (Allohning borligi va birligini anglatgan qasidalar), munojot (Allohga yolborib yozilgan qasidalar), na't (Muhammad (s.a.v.)ning sifatlariga bag'ishlab yozilgan qasidalar), madhiya (biror kishiga bag'ishlab yozilgan), marsiya (biror bir shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan qasidalar), hajviya (biror kishiga hazil bilan yozilgan qasidalar), orifona va tasavvufona qasidalarga bo'linadi³⁸. Majzub Namangoniy ijodida nasib qismi mavzulariga ko'ra ramazoniya; radifiga ko'ra sunbul, qil, sango; mavzusiga ko'ra tavid, munojot, na't, orifona va tasavvufona kabi qasidalarni uchratish mumkin.

"Majzub asarlari badiiyati" nomli uchinchi bobning 3.1 fasli **"Shoirning badiiy san'atlarni qo'llash mahorati"** tarzida nomlangan. Majzub Namangoniy – badiiyat ilmini chuqur egallagan va uni she'riyatda o'z o'rnida mahorat bilan qo'llay olgan ijodkordir. Shoir she'riyatning ko'plab janrida: xoh g'azal, xoh murabba', xoh muxammas, xoh musaddas yoki masnaviyda ijod etar ekan, fikrni go'zal badiiy san'atlar bilan ifodalaydi.

Adabiyotshunos Y. Is'hoqov³⁹ she'riy san'atlarni matndagi vazifasi bilan aloqada kelishiga ko'ra o'n guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi.

³⁶Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 171-181.

³⁷ Абдуллаев И. Х асрда Бухорода ёзилган қасидалар ҳақида. / Ўзбек тили ва адабиёти. 1962. №6. – Б. 16-23.

³⁸ <http://www.wikipedia.org/wiki/qasida>.

³⁹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O'zbekiston, 2014. – Б. 79-85.

Z.Mamajonov⁴⁰ tomonidan she'riy san'atlar tasnif etilganda, olim bade' ilmini o'n ikki guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya etsa, professor D.Yusupova⁴¹ uch guruhga – lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga bo'lib o'rganadi. Majzub Namangoniy lirikasida ham D.Yusupova ta'kidlagan uch guruhga kiruvchi badiiy san'atlarni kuzatish mumkin.

Sani yod shom, sahar qilib, kechalari diydani tark qilib,

Dili g'ofilimni xabar qilib, sani aytsam, sani aytsam.

Takrir Namangan adabiy muhitida Mashrab, Muhyi, Nodim Namangoniy kabilar ijodida keng qo'llangan san'atlardandir. Bu san'at, birinchidan, shoir bildirmoqchi bo'lgan fikrni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'quvchining diqqat-e'tiborini muallif ko'zda tutgan asosiy mazmunga qaratadi. Yuqoridagi g'azalda radifni takrorlash orqali muallif ijodiy niyatiga urg'u berilishi barobarida ohangdorlikni kuchaytirishga erishilgan.

She'riyatda iqtibos va aqd san'atlarini qo'llash tasavvuf adabiyotida keng qo'llangan. Qur'oni Karimdan oyatlarni va hadisdan parchalarni aynan yoki ma'nosining keltirilishi Majzub g'azallarida ko'plab uchraydi. "Iqtibos – mashhur qavlg'a ko'ra Qur'on yo Hadisdin bir nimani aning Qur'on yoki Hadisdan oling'anig'a ishora bo'lmag'an tarzda kalomga kiritmaktin iboratur..."⁴², – deya Atoullloh Husayniy ta'rif bergan bo'lsa, Anvar Hojiahmedov: "Ilm o'zlashtirmoq" ma'nosidagi bu so'z Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati nomidir"⁴³, – deb ataydi. Y.Is'hoqov bu san'atning mushtarak san'atlar sirasiga kirishini aytib: "nasr va nazmda bayonning yorqin va go'zal ifodasi uchun oyat va hadislar keltirish usuli"⁴⁴, – deydi. Iqtibos Qur'on yoki Hadis matnidan olingan bo'lsa-da, uning aynan shu manbalardan olinganiga ishora qilinmagan holda keltirilishini anglatadi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan qaraganda, iqtibos qilishning ikki asosiy jihati mavjud:

1. Ilmiy va rasmiy yondashuv – bunda Qur'on yoki Hadisdan olingan ma'lumotning manbasi aniq ko'rsatiladi, odatda tafsir, sharh va huquqiy matnlarda shunday yondashiladi.

2. Badiiy yondashuv – bunda muallif matnni badiiy san'atlar bilan ziynatlab, Qur'on yoki Hadisdan keltirilgan fikrga aniq havola bermaslik orqali uning she'r ifoda kuchini oshirishishiga hamda ifodaning nafis san'at asosiga qurilishi ta'minlanadi.

Iqtibos san'ati Majzub Namangoniy ijodida keng qo'llanilgan. Shoir ijodida iqtibos san'ati ikki usulda ishlatilgan: Qur'on oyatlari va Hadisga ishora sifatida iqtibos va Qur'on oyatlari yoki Hadislardan aynan parchalar keltirish orqali. Qur'oni karim oyatlari yoki Hadisga ishora sifatida keltirilgan baytlar birmuncha ko'p.

Shirk dedilar, har kimki desa kunhig'a yetdim,

⁴⁰ Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърий санъатларнинг назарий таснифи ва тавсифи. Дисс. филология фанлари бўйича фалсафа доктори. – Тошкент, 2017. – Б. 79.

⁴¹ Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018. – B 176.

⁴² Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъ ус санойиъ: Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 45.

⁴³ Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент: Шарқ. 1999. – Б. 65.

⁴⁴ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – Б. 83.

“Subhonaka lo ilma” kunhing digar ashyo.

Mazkur baytda iqtibos san’ati mahorat bilan qo‘llangan. Baytda inson Haq taoloning ma’rifati mohiyatini to‘laqonli anglashi imkonsiz ekani fasohat va balog‘at uyg‘unligida talqin etilgan.

Bobning 3.2 fasli “*Shoir lirikasida vazn, qofiya va radifning o‘rni*” deb nomlanadi. Abdulaziz Majzub Namangoniy o‘z ijodida aruz vaznining o‘ziga xos imkoniyatlaridan ijodiy va samarali foydalangan. Uning she’riy merosi vazn va ohang uyg‘unligi, badiiy ifoda uslubining ravonligi hamda poetik tafakkurning yuksakligi bilan ajralib turadi. Majzubning asarlarida tanlangan bahrlar va radiflar nafaqat she’riy shaklga joziba bag‘ishlaydi, balki mazmunning ta’sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ijodkor she’rlari, ayniqsa, g‘azal, masnaviy va muxammaslari aruz vaznining mutaqorib, hazaj, ramal va rajaz bahrlarida yozilgan bo‘lib, bu bahrlarning har biri muayyan ritmik va fonetik imkoniyatlarga ega. Mutaqorib bahri shiddat va ichki turg‘unlikni, hazaj – silliqlik va lirizmni, ramal – nafislik va musiqiylikni, rajaz esa – jo‘shqinlik va mantiqiy oqimni ifoda etishga xizmat qilgan.

Shoir devonidan joy olgan lirik asarlari vazni quyidagicha:

| T/N | Bahr nomi | G‘azal | Muxammas | Masnaviy | Soqiynoma | Murabba’ |
|-------------|-----------|-----------|----------|----------|-----------|----------|
| 1 | Hazaj | 7 ta | 1 ta | | | 1 ta |
| 2 | Ramal | 23 ta | | 4 ta | | 2 ta |
| 3 | Rajaz | 1 ta | | | | 1 ta |
| 4 | Mutaqorib | 3 ta | 3 ta | 5 ta | 7 ta | |
| 5 | Munsarih | 1 ta | | | | |
| Jami | | 35 | 4 | 9 | 7 | 4 |

Majzub Namangoniyning she’riyatda faol yoki kam qo‘llanadigan aruz bahrlaridan foydalanishi uning nazariy bilimlari va amaliy tajribasining yuqori darajada ekanidan dalolat beradi. Shoir faqatgina an’anaviy shakllarga bog‘lanib qolmay, balki aruzning nozik jihatlarini puxta o‘rganib, ijodiy tajribalarga ham qo‘l urgan. Bu esa uning poetik salohiyati va badiiy izlanishlariga bo‘lgan intilishining yorqin namunasi sanaladi.

Mumtoz she’riyatda qofiya asarning badiiyati va ijodkorning poetik mahoratini aniqlovchi asosiy unsurlardan biridir. Zero, qofiya she’rga nafaqat ohangdorlik bag‘ishlaydi, balki lirik asarda muallif ifodalagan falsafiy mazmun va obrazlar dunyosini o‘quvchi qalbiga ta’sirli va jozibali tarzda yetkazuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shayx Ahmad Taroziy fikricha: “She’rning asli qofiya. Va qofiyasiz she’r mumkin ermas... Va zurafo baytni xaymag‘a nisbat qilibturlar va qofiyani sutung‘a. Ya’ni sutun birla barpoydur”⁴⁵. Qofiya harflarining matndagi tartibi va joylashuvi uning asosiy tarkibiy tuzilishini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, qofiyadan avval keluvchi ridf, ta’sis va qayd kabi harflar qofiyaning tuzilishiga ta’sir ko‘rsatib, uning turli xususiyatlarga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan, qofiyaning o‘zak tarkibiga qarab *muassas qofiya*, *murdaf qofiya*, *muqayyad qofiya*, *mujarrad qofiya* kabi turlarga ajratilishi ilmiy nuqtayi nazardan

⁴⁵ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хази́на, 1996. – Б. 43.

asoslangan bo‘lib, mumtoz adabiyot nazariyasida muhim konsepsiya sifatida qaraladi.

Majzub Namangoniy ijodida qofiyaning barcha turlari keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, “yakka”, “yolg‘iz” ma’nolarini ifodalovchi mujarrad qofiya yetakchilik qiladi. “Mujarrad qofiya raviydan oldingi qofiya harakatining kelishiga asoslanadi. Raviydan oldingi tavjihning kelishi mujarrad qofiya turini hosil qilishi”⁴⁶ e’tiborga olinsa, shoir she’rlarida qofiyaning nazariy talablariga muvofiq ish tutgani kuzatiladi. Qofiya ilmida Nosiriddin Tusiy mujarrad qofiyaning uch turga bo‘lib o‘rgangan⁴⁷. Professor D. Yusupova qofiya ilmida mujarrad qofiyaning ikki turini farqlaydi. Birinchisi, “...raviy cho‘ziq unidan iborat bo‘lib, ana shu cho‘ziq unidan boshqa biror harf ishtirok etmaydi”⁴⁸. Biz ham tadqiqot davomida D. Yusupovanning fikrlariga qo‘shilgan holda mujarrad qofiyaning ikki turini farqladik. Jumladan, quyidagi g‘azal bunga misol bo‘la oladi:

Boq sun’ig‘a xok suvdin, suvdin ayladi paydo,
Etti nechasin nechasiyg‘a volay shaydo.

G‘azaldagi “paydo”, “shaydo”, “tamosho”, “savdo”, “aslo”, “oro”, “g‘avg‘o”, “taolo” so‘zlari so‘ngida kelgan “o” raviysi cho‘ziq unli hisoblanib, qofiyadosh so‘zlar shu harf bilan tugagan. Bu to‘liq qofiya bo‘lib, ular bir xil ohang bilan tugaydi va baytning ritmiga hamohang ravishda uyg‘unlashadi. Baytda qofiyaning ishlatilishi baytning badiiy mukammalligini oshirgan.

Umuman, mumtoz poetikaning asoslaridan hisoblangan vazn va qofiya Majzub Namangoniy she’riyatida aniq badiiy-irfoniy vazifa bajaradi. She’riyatda mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Majzub Namangoniy adabiy merosining manbalari, lirik asarlarining matn tarixi va badiiyatiga doir izlanishlar natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

1. Majzub Namangoniy ilmiy biografiyasini tiklash adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan. Ilmiy adabiyotlarda shoir tug‘ilgan joy Qo‘qon, Nasaf, Piskent, Namangan tarzida turlicha ko‘rsatilgan. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 2125 raqamli qo‘lyozmada shoirning Namakkonkonda, ya’ni Namangan shahridagi Degrezlik dahasining hozirgi Sumalak guzari mahallasida dunyoda kelgani aytilgan. Ushbu ma’lumotni shoir avlodlari qo‘lida saqlanib kelayotgan “Devoni Majzub Namangoniy” qo‘lyozmasi ham tasdiqlaydi.

2. O‘zbek adabiyoti tarixida “Majzub” taxallusli uchta shoir ma’lum: Mir Muhammad Majzub, Sharafiddin Majzub Xorazmiy va Abdulaziz Majzub Namangoniy. Har uch shoir ham tariqat ahllaridan bo‘lib, tasavvufiy yo‘nalishda ijod qilgan. Majzub Namangoniy tasavvuf ta’limotidan dastlab ustoz va piri Mavlaviy Namangoniy deya shuhrat qozongan Mulla Xoja Eshon Namangoniy va

⁴⁶ Hamroyeva O. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2022. – B. 100.

⁴⁷ Носир ад-Дин Туси. Мияр ал-ашор. – Техрон. 1325. – Б. 115-124.

⁴⁸ Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят малохати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 197.

Zokirxo‘ja eshon qo‘lida tahsil olgan bo‘lsa, Buxoro madrasasida o‘qigan davrida mashhur mutasavvuf Husayniy Yangiqo‘rg‘oniyning yaqin muridlardan bo‘lgan.

3. Shoir devoni qo‘lyozmalari hozirda O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida, shuningdek, Hamid Sulaymon fondida 1992, 1018/I, 4206/II, 12503, 1046/I, 4003, 1867, 2125, 1481, 2580/I, 2351/II, 2567, 2662 raqamlari bilan saqlanmoqda. Namanganda shoir muxlisi Habibulloh Akmalxon Maxdum o‘g‘li va tojikistonlik Sodirjon ismli kishining shaxsiy kutubxonasida, shuningdek, namanganlik olim Odiljon Nosirovning avlodlari qo‘lida ham devon nusxalari saqlanadi. Namangan viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyi Adabiyot va san‘at bo‘limi fondida ham shoir asarlari uchraydigan qo‘lyozmalar bor. Ular orasida 2125 va 1481 raqamli qo‘lyozmalar shoir asarlarining eng ishonchli manbalaridir. 1481 inv raqamli qo‘lyozma so‘ngidagi: “Ko‘chirtirguvchi Abdulaziz Xasanxo‘ja o‘g‘li” degan bitik uning muallif nazorati ostida ko‘chirtirgani isbotidir.

4. Ijodkor asarlarining matn tarixini uch omil – asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, muallif maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni, joriy nashrlardagi asarlari matnining ishonchlilik darajasi hamda shoir she’rlari ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan tahlil etish natijalari ularning matni, qo‘lyozmalardagi ayrim tafovutlarni istisno qilganda, nuqsonlar nisbatan kam ekanidan dalolat beradi. Majzub she’rlarining mukammalligini ta’minlash maqsadida turli tuzatishlar va tahririy o‘zgarishlar kiritgan. Ushbu o‘zgarishlar matn tarixining muhim tarkibiy qismlaridan sanalib, muallif ijodiy jarayonini ifoda etishi jihatidan qimmatlidir.

5. Majzub lirik asarlarini mavzu jihatdan *ishqiy, diniy-tasavvufiy, ilm-ma’rifat va ijtimoiy-falsafiy* tarzida guruhlashtirish mumkin. Shoir lirikasining muayyan qismini ishqiy mavzudagi she’rlar tashkil etgan bo‘lib, ular turli janrlarga mansubdir. Ijodkorning “Tazkirat ul- avliyo”, “Manoqibi ahli suluk” kabi tasavvuf namoyandalariga doir tazkiralari hamda irfoniy mazmundagi “Dar tavzeh” (“Oydinlashtirish”) asaridagi g‘oyalar she’rlariga ham ko‘chgan. Shunga ko‘ra, shoirning ishqiy va diniy-tasavvufiy she’rlari o‘zaro chambarchas bog‘liq va bir-birini to‘ldirib keladi. Ilm-ma’rifat va ijtimoiy-falsafiy mavzudagi she’rlar shoir lirikasining mavzuiy ko‘lami keng ekanini, uning o‘zi yashagan davr va jamiyat hayotiga faol munosabatini ko‘rsatishi jihatidan ahamiyatlidir.

6. G‘azal, qasida, musallas, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma, qit’a kabi janrlarda ijod qilgan shoir har bir janrning poetik xususiyatlari hamda ifoda imkoniyatlarini nazarda tutgan. Majzub Namangoniy ijodida g‘azal janri namunalari eng ko‘p. Shoir she’riyatida g‘azalning qofiyalanishiga ko‘ra – oddiy, g‘azali husni matla, g‘azali qit’a, g‘azali mulamma va g‘azali muvashshah; kompozitsion jihatdan parokanda va voqeaband; g‘oya va mavzusiga ko‘ra hamd, na’t, oshiqona, orifona, rindona, axloqiy-talimiy, ijtimoiy-falsafiy kabi turlari mavjud. Shoir g‘azallarining hajman eng kichigi 11 bayt va eng yirigi 23 baytdan tarkib topgan. Ular orasida aksari 13, 15 baytli g‘azallardir. Shoir g‘azallari Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflardan oziqlanadi, ularda ilohiy ishq zavq-u shavqi ifodalanadi, irfoniy mazmun va badiiy talqin uyg‘un talqin etiladi.

7. Majzub Namangoniy qaysi janrda yozmasin, she'rlarida tanosub, tazod, istiora, takrir, talmeh, iqtibos, aqd singari badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalangan. Bu orqali tasavvufiy mohiyatni betakror badiiy talqin etish borasidagi salohiyatini namoyon etgan. Shoir, ayniqsa, muayyan g'azallarini matla'dan maqta'gacha yagona san'at asosiga qurib, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida kuzatilmagan yangilikka qo'l urgan. Shoirning boshdan oyoq takrir san'ati asosida ijod qilingan "Sango qaytsam, sango qaytsam", "Manam, manam, manam" radifli g'azallari hamda avvalidan oxirigacha talmeh san'atiga zaminiga qurilgan "*Tufayli Muhammad alayhissalom*" deb boshlanuvchi masnaviyi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

8. Shoir lirik asarlari aruzning ramal, hazaj, rajaz, munsarih va mutaqorib vaznlarida bitilgan. Ular orasida turkiy she'riyatda faol qo'llangan ramal bahri yetakchilik qilib, ijodkorning 23 ta g'azali, 4 ta masnaviy va 2 ta murabba'si mazkur bahrda ijod qilingan. Son jihatdan hazaj bahri ikkinchi o'rinda turadi: 7 ta g'azal, 1 ta muxammas va 1 ta murabba' ushbu bahrda yozilgan. Eng kam qo'llangani munsarih bo'lib, ushbu bahrda faqat 1 ta g'azal bitilgan, xolos. Ijodkor lirik she'rlari uning aruz nazariyasini nechog'liq chuqur bilishidan va badiiy ijodda san'atkorona qo'llash salohiyatidan dalolat beradi.

9. Majzub Namangoniy lirik she'rlarida mumtoz qofiyaning o'zak tarkibiga asosan *mujarrad*, *murdaf*, *muqayyad*, *muassas* kabi turlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Shoir she'riyati vazn va ohang uyg'unligi, badiiy ifoda uslubining ravonligi hamda poetik tafakkurning yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. Ijodkor asarlari uchun tanlangan bahr va radiflar she'riy shaklga joziba bag'ishlash barobarida irfoniy mohiyatning teranligini ta'minlashi jihatidan ham qimmatlidir. Bundan tashqari, shoir qofiyaning sokin yoki mutaharrik bo'lishiga ko'ra *mutlaq* va *muqayyad* kabi turlaridan san'atkorona istifoda etadi. Bu esa shoirning nazmiy uslubida badiiy me'yor va nazariy talablarning uyg'un ekanini ko'rsatadi.

Yaxlit umumlashtirilsa, Majzub Namangoniy ijodining qo'lyozma manbalari va she'rlarining matn tarixini o'rganish shoir adabiy merosining boy va rang-barang ekanini tasdiqlaydi. Shoir mumtoz she'riyatning g'azal, qasida, masnaviy, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma va qit'a singari eng faol o'n janrida ijod qildi. She'rlarida irfoniy mazmun va badiiy talqin yuksak darajada uyg'unlashgan. Ijodkor lirikasida badiiy san'atlar, qofiya va radif imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Bular barchasi Majzub Namangoniyning o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ijodkor ekanini ko'rsatadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 AT ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

**ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

BOYATOV OYBEK MAXMUDJON O‘G‘LI

**SOURCES, TEXTUAL HISTORY, AND LITERARY OF MAJZUB
NAMANGONIY‘S LITERARY HERITAGE**

10.00.02 — Uzbek literature

10.00.10 – Textual and Literary Source Studies

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.2.PhD/ Fil3384.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) and has been posted on the Scientific Council’s website at www.tsuull.uz and on the “ZiyoNet” information and educational portal at www.ziynet.uz.

Scientific advisor: **Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**
Doctor of Philological sciences, professor

Official opponents: **Musurmonov Erkin Robbimovich**
Doctor of Philological sciences, professor

Rafiddinov Sayfiddin Sayfulloh o‘g‘li
Candidate of Philological Sciences, Senior Researcher

Leading organization: **State Literary Museum of the Academy of Sciences Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will take place on « ____ » _____ 2025 at _____ hours at a meeting of the Scientific Council DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 on the award of scientific degrees at Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz), e-mail: interdep@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available an the Information and Resource Center of the Alisher Navo‘i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under the number _____). (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz).

The dissertation author’s abstract is distributed on “ ____ ” _____ 2025 (registry record No. _____ dated « ____ » _____ 2025).

Sh.S.Sirojiddinov
Chairman of the Scientific Council for
the award of scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Academician

Q.U.Pardayev
Scientific Secretary of the Scientific
Council for the award of scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, professor

B.N.Karimov
Chairman of the Scientific Seminar of the
Scientific Council for the award of scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In world literary studies and textual analysis, manuscript sources on the history of literature, their genealogy, the evolution of texts, their role in the development of poetic thought, and the literary mastery of creators remain the primary focus of research. Examining the internal processes of a particular poet's or writer's creative activity based on the criteria of Eastern classical poetics is one of the central directions of scientific inquiry in this field. Specifically, analyzing the lyrical heritage of poets who stimulated the formation of literary environments in certain regions and thereby made significant contributions to the development of literary and aesthetic thinking, as well as studying the intricacies of their literary mastery, is crucial from the perspective of introducing new theoretical and practical approaches to literary studies.

In the field of world literary and textual studies, handwritten copies of works by representatives of classical Eastern poetry, manuscript and lithographic sources, their literary and mystical value, and aspects of their artistry are continuously being researched. In particular, scientific investigations are being conducted on the biographies, beliefs, and ideologies of poets and writers who primarily created works in the religious-mystical direction, as well as on the poetic value of their literary heritage. Various scientific and theoretical conclusions are being drawn regarding the role of their works in the moral and educational development of individuals and the cultural and spiritual progress of society.

As a result of research in Uzbek literary studies and textology, consistent investigations are being conducted on manuscript sources of works by creators whose literary heritage has been relatively understudied. These scientific inquiries have enriched the history of literature with new names, and handwritten literary works are being published with scholarly annotations and indices. Sources are being thoroughly examined, critical scholarly editions of creative works are being produced, facsimile publications are being realized, and the history of texts is being studied. However, there remain numerous manuscript sources awaiting researchers that require analysis. Similar observations can be made about the literary legacy of Abdulaziz Majzub Namangoni, a divan-composing poet and spiritual guide of the Sufi order. This assertion is further corroborated by the fact that, with the exception of a few publications of some of his works and certain analytical articles, the poet's divan and literary-scientific legacy have not been subjected to comprehensive monographic study. "Today, as our country enters a new stage of development, new scientific research on our history and culture is more crucial for us than ever before"⁴⁹. Consequently, studying the creative heritage of Majzub Namangoni based on the latest achievements in literary criticism, textology, and literary source studies, analyzing manuscript sources, and evaluating his literary mastery are among the pressing scholarly issues that demand attention.

This dissertation research, to a certain extent, contributes to the implementation of tasks specified in the following documents: Decrees of the

⁴⁹ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 33.

President of the Republic of Uzbekistan No. UP- 4947 dated February 7, 2017 “On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan, No. UP-5850 dated October 21, 2019 on Measures to Radically Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language”, and Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 2021 No. UP-6084 “On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in the Country”, Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated February 16, 2018 No. 124-F “On Holding the International Conference “Topical Issues of Studying and Promoting Uzbek Classical and Modern Literature at the International Level”, dated March 3, 2020 No. 117 “On Measures for Further Improving the Activities of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi”, No. 61 dated February 10, 2021 “On Measures to Ensure Gradual Full Transition to the Uzbek Script Based on the Latin Alphabet”, as well as other regulatory legal documents.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation was conducted in accordance with the priority direction I of the republic’s science and technology development: “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational advancement of an information society and a democratic state”.

The extent of study of the problem. The earliest information about the literary heritage of Majzub Namangoni can be found in Pulatjon Domulla Qayyumi’s work “Tazkirai Qayyumi”⁵⁰. This source provides brief information about Majzub’s work in the Sufi tradition, his poetic style, and his place in the literary environment of Namangan. Due to his creative work in the religious-mystical direction, the poet’s works were hardly studied during the Soviet era. In the early 1980s and during the years of independence, introductory articles by orientalist Ismatulla Abdullayev, A. Khalilbekov’s textbook “Namangan Literary Environment”⁵¹, and his article “Love is a Unique Pearl”⁵² analyzed the themes of divine love and love for Allah in the poet’s poems. Otabek Juraboyev’s articles on the life and work of Majzub Namangoni are valuable for their reliance on primary sources and the provision of new information⁵³. In his doctoral dissertation, Professor Nurboy Jabborov writes:

“Majzub Namangoni was a mentor of the Qadiriya tariqa, and at that very time this tariqa was quite widespread in the Fergana Valley”⁵⁴, O. Juraboev endorses

⁵⁰ Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилдлик. Ж.П. – Тошкент: Қўлғизмалар институти. 1998. – Б. 187-190.

⁵¹ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1998. // Ишқ бир ноёб гуҳар. Наманган ҳақиқати. 2003, 18 январь.

⁵² Абдуллаев И. Мажзуб Намангонийни биласизми? Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1983. 28 январь // Мажзуб Намангоний. Наманган садоси, 1998. 9 май.

⁵³ Жўрабоев О. Ҳазиний ва Фурқат: рухий-маънавий уйғунлик. Истиқлол йиллари: миллий-диний кадриятларнинг халққа қайтиши. – Тошкент, 2001. – Б. 79-80. // Мажзубни биласизми ёхуд мажзубийлик нима? Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004. 25 июнь. // Мажзуб Намангоний ва унинг адабий мероси манбалари хусусида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 33-35.

⁵⁴ Жабборов. Н. Фурқат ҳаёти ва ижодининг хориждаги даври: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 114.

the hypothesis that Furqat, in his ghazal with the radif “Aylang madad”, refers to Majzub Namangoniyy through the line “You have become annihilated in the city of Namangan...”.

Additionally, the anthology “Namangan Writers”⁵⁵ provides a brief biography of the poet and examples of his ghazals. In her articles, researcher Naima Alikulova analyzes Majzub Namangoniyy’s mastery in creating mystical imagery, the symbolic system found in his ghazals, and aspects related to spiritual and intellectual exploration⁵⁶.

The attention paid by English literary scholars to the poet’s life, legacy, and works attests to Majzub Namangoniyy’s significant position in Sufi literature. While Karl Ernst’s work “Sufism: History, Politics and Culture”⁵⁷ discusses the mystical essence of the poet’s ghazals, Ildiko Beller-Hann’s book “Kashgar Revisited”⁵⁸ provides information about the poet’s connection with the Sufi order, aspects of his work related to Kashgar, and his present-day descendants. Kawahara Yayoi, in her article “The Development of the Naqshbandiyya - Mujaddiyya in the Ferghana Valley During the 19th and Early 20th Centuries”⁵⁹, states that Majzub Namangoniyy created works based on the teachings of Afaqkhoja related to the Naqshbandi Mujaddidiyya. However, it is known that the poet actually belonged to the Qadiriyya order⁶⁰.

It should be noted that in all these studies, the work of Majzub Namangoniyy was not comprehensively examined, but rather addressed only from specific thematic perspectives. This dissertation stands apart from the aforementioned scientific works in that it studies the poet’s work on a monographic basis.

The connection of the research with the research work of the research institution where the dissertation was completed. The dissertation was conducted in accordance with the research plan of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, within the framework of the topic “Pressing Issues in the History of Uzbek Literature and Textual Studies”.

The purpose of the research is to comprehensively evaluate the manuscript sources of Majzub Namangoniyy’s literary heritage, the textual history of his lyrical works, their thematic and genre characteristics, as well as their literary qualities.

The tasks of the research.

To provide a monographic description of the manuscripts and lithographic copies of Majzub Namangoniyy’s works;

To elucidate the textual history and editing of the poet’s works on a scientific and theoretical basis;

⁵⁵ Ҳомидий Х., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Тошкент, Фан. 2007, – Б. 26.

⁵⁶ Аlikuлова Н. Мажзуб Намангонийнинг адабий мероси. Ўзбек тили ва адабиёти. 2008, 4 сон. – Б. 123-131. // Мажзуб Намангонийнинг “Тазкират ул авлиё” асари ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 2010, 1-сон, – Б. 63-67.

⁵⁷ Karl Ernst. Sufism: History, Politics and Culture. Journal of the History of Sufism. 2017. (3). – P. 213-236

⁵⁸ Ildiko Beller-Hann. Kashgar Revisited. – London: BRILL. 2015. – P. 231

⁵⁹ Kawahara Yayoi. The Development of the Naqshbandiyya – Mujaddiyya in the Ferghana valley During the 19th and Early 20th Centuries. Journal of the History of Sufism. 2015. (6). – P. 139-186

⁶⁰ Жабборов. Н. Фурқат ҳаёти ва ижодининг хориждаги даври: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 114.

To assess the author's lyrical poems through thematic classification;
To present analytical insights into the genre features of Majzub's poetic works;

To determine the role of literary devices in expressing the poet's creative intent;

To clarify the literary and aesthetic function of meter and rhyme in the author's lyrical works.

The object of the study comprises manuscript sources stored under numbers 1018, 2125, 2351/II, 2567, 2580/I, 1481, 12503, 1992/II, 1046/I, 1867, 4003, 4206/II, 3156, 1123 in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan; manuscripts of "Devoni Mazjub Namangoni" preserved in Saudi Arabia and by admirers in Namangan; a copy of "Tazkirat ul-avliyo" in the Tajikistan madrasah fund; the collections "Oshiq manam..." and "Muhabbat sarchashmasi"; and published editions of "Soqiynoma".

The subject of the research encompasses the source analysis of manuscript and lithographic copies of Majzub Namangoni's divan, the textual history of the works, the poet's creative style, poetic mastery and approach to literary traditions, as well as Sufi-philosophical ideas in the works and their literary interpretation.

Research methods. Comparative-historical, textual-comparative, biographical, and statistical analysis methods were employed to elucidate the dissertation topic.

The scientific novelty of the research consists from:

A monographic description of the manuscript and lithographic sources of Majzub Namangoni's literary and scientific heritage has been carried out. The manuscripts of "Devoni Abdulaziz Majzub" stored in Saudi Arabia and "Tazkirat ul-avliyo" by the author, preserved in the Tajikistan madrasah fund, have been brought into scientific use.

The manuscript and lithographic sources of the poet's works were compared, and the textual history, including reasons for differences in the sources, was explained. As a result of comparing the edits made by scribes and editors to the author's works, reliable texts of poems belonging to different lyrical genres were restored. Additionally, 3 ghazals, 1 muxammas, and 1 masnaviy - a total of 162 verses of poetry not included in the divan - were newly identified from manuscript bayoz.

The author's lyrical works in classical genres such as ghazal, qasida, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musamman, soqiynoma, masnaviyy and qit'a were classified into themes including *romantic*, *religious-mystical*, *scientific-educational*, and *socio-philosophical*. These were analytically evaluated from the perspective of the author's beliefs and principles, creative concept, harmony of mystical content and poetic expression, as well as the creator's literary style.

The poet's composition of poems in the rarely used musallas genre, his use of literary devices, and his mastery of aruz and rhyme were substantiated: firstly, through examples of takrir, talmeh, and iqtibos, consistently employing a single

poetic device throughout; secondly, by writing highly literary poems in the ramal, hazaj, rajaz, munsarih, and muta qarib meters of aruz; thirdly, by skillfully using various types of classical rhyme based on root composition, such as *mujarrad*, *murdaf*, *muqayyad*, *muassas*, and *raviy*, as well as *mutlaq* and *muqayyad*, depending on whether they are calm or mutaharrik.

The practical results of the research are as follows: Through comparative textual analysis of manuscript and lithographic copies of Majzub Namangoni's works, 3 ghazals, 1 muxammas, and 1 masnaviy - totaling 162 lines of poetry - were discovered, which were previously unknown to scholars and not included in the poet's divan;

based on the study of the textual history of the poet's works, reliable texts have been reconstructed, which serve as an important source for future scientific research and academic publications;

the poet's lyrical poems have been classified into themes of love, religious-mystical, educational, and socio-philosophical nature, and analyzed according to the requirements of classical Eastern poetics;

Majzub's lyrical works in classical genres such as ghazal, qasida, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musamman, sakinoma, masnaviy, and qit'a have been studied from a monographic perspective.

